

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TAJIBAYEV SHOHRUH MAQSUDOVICH

MAKTAB O'QITUVCHILARIDA STRESSGA BARQARORLIK
NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Tajibayev Shohruh Maqsudovich

Мaktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik
xususiyatlari3

Тажибаев Шохрух Максудович

Психологические особенности проявления стрессоустойчивости у школьных
учителей21

Tajibayev Shokhrukh Maksudovich

Psychological features of stress resistance in school teachers 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TAJIBAYEV SHOHRUH MAQSUDOVICH

MAKTAB O'QITUVCHILARIDA STRESSGA BARQARORLIK
NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/P806 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ulug'ova Shahlola Musliddinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Baratov Sharif Ramazonovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Karshiyeva Dilafro'z Suyunovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2024.P.72.06. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «17» yanvar soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).


2/580 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «3» yanvar kuni tarqatildi.

(2025-yil «3» yanvar dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).


A.M. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor


Sh.Sh. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


A.A. Xuseynova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda stress va stressga barqarorlik tushunchasining nazariy aspektlari, shaxsning stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish masalalarini tadqiq etish tobora dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Butun Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (BJSST) 2024-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab shaxslarning 31% stressni o'z mamlakatlaridagi eng katta muammo deb hisoblaydi¹. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Assambleyasida stress holati Xalqaro kasalliklar klassifikatoriga 11-raqam ostida kiritilgan². 2019-yilda Gallup instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, Gretsiya stress darajasi eng yuqori davlat bo'lib, so'rovnomaga qatnashgan respondentlarning 59% juda ko'plab stressli holatlarni boshdan kechirganliklarini bildirishgan³. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagoglarda stressga chidamlilikni oshirish, stressning ruhiy salomatlikka jiddiy ta'sirini oldini olish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida pedagog xodimlarning kasbiy bilimlarini o'rganish, psixologik usullarni tizimlashtirish orqali aniq mezonlarni ishlab chiqish, stressga barqarorlik namoyon bo'lishi, pedagoglarning o'ziga xos jihatlari va stressga ta'sir ko'satuvchi omillarni aniqlash masalalariga qaratilgan empirik tadqiqotlar olib borilmoqda. TALIS (Teaching and Learning International Survey⁴) xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda 48 ta davlatdan 4000 nafarga yaqin o'qituvchilar ishtirok etgan bo'lib, ulardan 80% stressli holatlarni yengish orqali kasbiy muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga ishonishadi. Stressning boshlanish nuqtasi xavotirlanish holati bilan bog'liq bo'lib, stressga sabab bo'luvchi omillar ta'sirini kamaytirish, hamda ruhiy barqarorlikni shakllantirish faoliyat samaradorligida muhim o'rin egallaydi. Maktab o'qituvchilarning kasbiy faoliyati jarayonida emotsiyaning fiziologik asoslarini aniqlash, salbiy emotsional holatlarni me'yorlashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati yuzaga kelganligi bois muammoni ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda fuqarolik jamiyatining jadal shakllanishi va rivojlanishi, mamlakat hayotida turli sohalar ayniqsa, maktab o'qituvchilarning faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishda zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash masalalarining zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish»⁵ning muhim vazifalar sifatida belgilanishi, pedagogning kasbiy kompetentli bo'lishi bilan birga voqealarni obyektiv baholash asosida pozitiv fikrlay olishni ilmiy tadqiq etish imkoniyatlari yaratilganligini ko'rsatmoqda. Natijada pedagoglarda stressga chidamlilikni

¹ <https://www.statista.com/statistics/>

² World Health Organization – www.who.int

³ <https://www.statista.com/chart/17822/share-of-the-population-that-experienced-a-lot-of-stress-yesterday/?utm>

⁴ <https://www.oecd.org/en/about/programmes/talis.html>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-289-son Qarori. - <https://lex.uz/uz/docs/6079561>

oshirish, salbiy holatlarni oldini olish, ta'lim sifatini va ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yangicha yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmonlarida, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida, hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda stress fenomenining pedagogik faoliyatga psixologik ta'siri xususiyatlar bilan bog'liq muammolari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, F.A.Akramova, Sh.R.Barotov, R.O.Begmatov, D.D.Boymirzayeva, M.G.Davletshin, Z.S.Elov, L.U.Inagamova, N.Z.Ismoyilova, D.U.Mamadiyarova, Z.T.Nishonova, L.Y.Olimov, O.E.Hayitov, U.D.Qodirov, D.S.Qarshiyeva, R.Y.Ernazarova, G'.B.Shoumarov, F.T.Shermatov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Akopyan, A.Andreyeva, L.I.Antsiferov, Z.L.Akakiy, D.Badmayeva, V.Bodrov, S.Gagolina, N.Devayev, V.Krivobokova, I.Komarova, V.O.Lavrov, O.Lozgacheva, R.A.Mamedova, I.Menshikova, Y.V.Raspopin, Y.Sapyorova, L.Statueva, Y.V.Shemetkova va boshqalar tomonidan kasbiy faoliyatda stresslarning yuzaga keltiruvchi omillar va stress holatini yengib o'tish muammosining o'ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bandura, R.Kettel, U.B.Kennon, R.Lazarus, K.Maslak, X.Murrey, G.Sullivan, G.Seleye, Z.Freyd, X.Frendenberger, E.Fromm, K.Xorni, E.Erikson va boshqalar tomonidan stress holatining yuzaga kelishi, sabablari va mexanizmlari, stressning shaxs xulq-atvoriga ta'siriga oid masalalar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Stressga chidamlilik muammosi alohida tadqiqot predmeti sifatida, aynan pedagog shaxsida stressning namoyon bo'lishi, unga ta'sir etuvchi psixologik determinantlar va kasbiy faoliyatga ta'siri,

o'qituvchining psixoemotsional holati, kasbiy faoliyatga tayyorligi, refleksivlik hamda kommunikativ muloqot darajasi bilan bog'liq muammolar ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikning darajaviy ifodalanishiga ko'ra ish tajribasiga bog'liq differensial farqlarni aniqlash;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni namoyon bo'lishiga pedagogik jamoaning o'zini o'zi ijtimoiy-psixologik baholash darajasini ta'sirini tadqiq etish;

maktab o'qituvchilarining stressga barqarorligi va nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalari orasidagi bog'liqlikni ochib berish;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan psixokorreksion dastur va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini o'rganish belgilangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro viloyatidan 100 nafar hamda Navoiy viloyatidan 70 nafar, jami 170 nafar xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan maktab o'qituvchilari respondent sifatida jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, test, anketa, kontent-tahlil metodlaridan, shuningdek, D.Amirxan tomonidan ishlab chiqilgan «Stressni yengish strategiyasi» metodikasi, V.I.Morosanovning «O'z xulq-atvorini tartibga solish uslubi», K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarga munosabatni o'rganish» hamda P.Lazarus va S.Folkman tomonidan ishlab chiqilgan «Muammoli vaziyatlarda koping xulq-atvor mexanizmlari ko'rsatkichlarini tadqiq qilish» metodikasi hamda hammualliflikda (Sh.M.Ulug'ova, Sh.M.Tajibayev) ishlab chiqilgan «Maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik darajasini aniqlash» so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezone, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikning darajaviy ifodalanishiga ko'ra, shaxsning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslik yoki kasbiy o'zgarishlarga moslasha olmaslik, kazuqli vaziyatlarni og'riqli qabul qilish bilan determinatsiyalashgan holatlar shaxsning o'z xulq-atvorini tartibga solish darajasining psixologik tuzilma sifatida namoyon bo'lishi natijasida ish tajribasiga bog'liq differensial farqlar mavjudligi asoslangan;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni namoyon bo'lishi shaxsning kuzusli vaziyatlardagi muammoni hal qilish strategiyasini konfrontatsion koping, masofa saqlash, o'zini o'zi nazorat qilish, ijtimoiy yordam izlash, javobgarlikni qabul qilish, muammodan qochish strategiyasini o'zini chetga olish xususiyatiga uyg'un holda yuzaga chiqishiga asoslanib, pedagogik jamoaning o'zini o'zi ijtimoiy psixologik baholash darajasiga identiv ekanligi isbotlangan;

maktab o'qituvchilarining stressga barqarorligini namoyon bo'lishida shaxslararo munosabatlardagi raqobatga intilish va moslashuvchanlik «muammoni hal qilish», hamkorlikka intilish «ijtimoiy yordam izlash», murosaliikka intilish esa «muammodan qochish» koping indikatorlarini faollashtirganligi tufayli nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyasi muhim psixologik omil sifatida dalillangan;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni shakllantirish uchun moslashuvchanlik, jamoaga interaktiv ta'sir etish bilan bog'liq professional autoidentifikatsiyani rivojlantirish hamda «koping strategiya»larning «konstruktiv texnika»larini qo'llashga o'rgatish muhimligiga ko'ra, shaxs psixoemotsional sohasiga ratsional emotiv va kognitiv usullar orqali integrativ ta'sir etish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik jihatlari ilmiy faktlar asosida yoritib berilgan;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning tadqiq qilish modeli yaratilgan;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit va pedagogning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liq dalillar keltirilganligi, kasbiy stress reprezentativligini prognozlash imkoniyatini oshirgan;

maktab o'qituvchilarida kasbiy stressga moyillikni oshishiga sabab bo'luvchi psixoemotsional omillarning ta'siri empirik jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi; xalqaro miqyosida tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi; natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktab o'qituvchilaridagi stressga barqarorlikning namoyon bo'lishi, ularning stressga chidamlilik darajasi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning kasbiy stresslar bilan aloqadorligi, maktab o'qituvchilarining ijtimoiy kompetentligi, koping xulqining bog'liqlik jihatlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish hamda muayyan tizimga solish orqali «Pedagogik psixologiya», «Kasb psixologiyasi», «Umumiy psixologiya» kabi fanlarni empirik dalillar bilan boyitilganligi, maktab o'qituvchilarida kasbiy stressga barqarorlikni shakllantirishda shaxs individual psixologik xususiyatlarini, emotsional, kognitiv

omillarni hisobga olgan holda psixokorreksion ta'sir usullarini taklif etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarning maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilishida, pedagogik faoliyatdagi kasbiy stressni vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish orqali maktab o'qituvchilariga psixologik ta'sir etish texnologiyasini yoritib berilishida, kasbiy stressga qarshi immunitetni oshirishning amaliy imkoniyatlarini takomillashtirish, tadqiqotning empirik natijalari asosida pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligini oshirishga yordam berishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikning darajaviy ifodalanishiga ko'ra, shaxsning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslik yoki kasbiy o'zgarishlarga moslasha olmaslik, kazuqli vaziyatlarni og'riqli qabul qilish bilan determinatsiyalashgan holatlar shaxsning o'z xulq-atvorini tartibga solish darajasining psixologik tuzilma sifatida namoyon bo'lishi natijasida ish tajribasiga bog'liq differensial farqlar mavjudligi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabr PM-215-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-215-a son ma'lumotnomasi). Natijada maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik darajaviy ifodalanishiga ko'ra differensial farqlar aniqlashtirilgan;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni namoyon bo'lishi shaxsning kazuqli vaziyatlardagi muammoni hal qilish strategiyasini konfrantatsion koping, masofa saqlash, o'zini o'zi nazorat qilish, ijtimoiy yordam izlashni javobgarlikni qabul qilish, muammodan qochish strategiyasini o'zini chetga olish xususiyatiga uyg'un holda yuzaga chiqishiga asoslanib, pedagogik jamoaning o'zini o'zi ijtimoiy psixologik baholash darajasiga identiv ekanligi isbotlanganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabr PM-215-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-215-a son ma'lumotnomasi). Natijada maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlashtirilgan;

maktab o'qituvchilarining stressga barqarorligini namoyon bo'lishida shaxslararo munosabatlardagi raqobatga intilish va moslashuvchanlik «muammoni hal qilish», hamkorlikka intilish «ijtimoiy yordam izlash», murosallikka intilish esa «muammodan qochish» koping indikatorlarini faollashtirganligi tufayli nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyasi muhim psixologik omil sifatida dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabr PM-215-son buyrug'i bilan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr

PM-215-a son ma'lumotnomasi). Natijada maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni namoyon bo'lishida nizoli xulq strategiyasi tizimlashtirilgan;

maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni shakllantirish uchun moslashuvchanlik, jamoaga interaktiv ta'sir etish bilan bog'liq professional autoidentifikatsiyani rivojlantirish hamda «koping strategiya»larning «konstruktiv texnika»larini qo'llashga o'rgatish muhimligiga ko'ra, shaxs psixosotsial sohasiga ratsional emotiv va kognitiv usullar orqali integrativ ta'sir etish zarurati asoslanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabr PM-215-son buyrug'i bilan «Shaxs psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-215-a son ma'lumotnomasi). Natijada maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlikni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan hamda muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Maktab o'qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida shaxs hayotida turli muammoli vaziyatlar sababli paydo bo'luvchi stress holati, stressning inson organizmiga ta'siri, stressorlar ta'sirida organizmning ichki muvozanati gomeostaz izdan chiqishi, stress sababli shaxs faoliyatida paydo bo'ladigan o'zgarishlar, stressning fiziologik va psixologik asosi, stressning yuzaga kelish bosqichlari borasida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistonda stress fenomenining pedagogik faoliyatga psixologik ta'siri xususiyatlar bilan bog'liq muammolari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, F.A.Akramova, Sh.R.Barotov, R.O.Begmatov, D.D.Boymirzayeva, M.G.Davletshin, Z.S.Elov, N.Z.Ismoyilova, D.U.Mamadiyarova, Z.T.Nishonova, L.Y.Olimov, O.E.Hayitov, U.D.Qodirov, D.S.Qarshieva, R.Y.Ernazarova, G'.B.Shoumarov, F.T.Shermatov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Stressning organizmga bo'lgan kuchli jismoniy va psixik ta'siri, psixologik stressning shaxs hayotiga, kasbiy faoliyatiga salbiy ta'siri bo'yicha A.G.Maklakov,

S.A.Salexov, L.V.Kashkina, T.L.Shabanova, O.V.Lozgacheva, A.N.Akopyan, Y.V.Sapyorova, O.V.Lavrov, T.N.Lisakova kabi MDH mamlakatlari olimlari ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Xorij tadqiqotchilaridan A.T.Beck, Dj.Sherit, va G.Salvendi, W.Cannon va H.Selye, DJ.Witkin hamda boshqalar stress bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etishgan bo‘lsa-da, lekin stress va psixik buzilishlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, kasbiy buzilishlar, kasbiy faoliyat hamda inson psixofiziologiyasi orasidagi korrelyatsion aloqadorlik, pedagogik faoliyatdagi kasbiy stresslar, refleksivlikning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati va stressga chidamlilik bilan bog‘liqlik jihatlari tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyaning «**Maktab o‘qituvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo‘lishini tadqiq etishning amaliy asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida stress holatini o‘rganish uchun diagnostik usullar tahlili, tadqiqotni tashkil etish bosqichlari, o‘qituvchilarga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlili, stressga chidamlilik, stress holatining ko‘rinishlari hamda xulq-atvorga ta’siri va psixodiagnostik testlarning dastlabki natijalari keltirilgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, maktab o‘qituvchilarida stressga barqarorlikni namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, uning o‘ziga xos psixologik omillariga jiddiy e’tiborni qaratish, pedagogning kasbiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, maktab o‘qituvchilari stress holatining namoyon bo‘lishi va uni bartaraf etishning imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Dastlab biz aniqroq ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida ular bilan alohida-alohida tadqiqotlar olib borib, empirik ma’lumotlar yig‘ildi va olingan natijalar ijtimoiy-psixologik talablar asosida tahlil qilindi. Mazkur bobda ushbu masalaga yanada ilmiy oydinliklar kiritish maqsadida qo‘lga kiritilgan empirik ma’lumotlar tahliliga to‘xtalamiz.

1-jadval.

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=170)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar t
	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar, n=90	o‘n yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lganlar, n=80	
Muammoni hal qilish	12,1	14,4	-2,2*
Ijtimoiy yordamni izlash	17,2	18,9	-1,2
Muammodan qochish	19,8	17,4	-2,4*

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» metodikasi bo‘yicha «muammoni hal qilish» (t=-2,2; p≤0,05) hamda «muammodan qochish» (t=-2,4; p≤0,05) omillarida ahamiyatli darajadagi farqlar kuzatildi. Metodikaning dastlabki «muammoni hal qilish» omili bo‘yicha o‘n yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktab o‘qituvchilarida ijobiy natija qayd etildi (t=-2,2; p≤0,05). Jumladan, o‘n yilgacha mehnat tajribasiga ega bo‘lgan maktab o‘qituvchilarida muammoni hal

qilish ko'nikmasi, turli ko'rinishdagi strategiyalaridan foydalangan holda vaziyatlarni o'z nazoratiga olishi va muammoning yechimi uchun harakat qilishi yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur holat pedagoglarning ijtimoiylashuv jarayonlari, yosh xususiyatlari hamda mehnat faoliyatidagi tajribasi bilan belgilanadi.

«Muammodan qochish» omili ham besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktab o'qituvchilarida yuqori natijani ko'rsatdi ($t=-2,4$; $p\leq 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktab o'qituvchilarida stressogen vaziyatga duch kelganida vaziyatni hal qilish o'rniga koping strategiyani qo'llash natijasda stressga chidamlilik namoyon bo'ldi. Shuningdek, ular stressogen vaziyatga duch kelganida, muammoni chetlab o'tishi va undan qochish bilan bu muammo hal bo'lib qolmaydi yoki o'z o'zidan bartaraf etilmaydi. Bunday vaziyatlarda pedagoglar muammoga yana qayta-qayta to'qnashadi va uni stress sari yetaklaydi. Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan D.Amirxanning metodikasi talablari doirasida talqin qilingan stressni yenga olish strategiyalari maktab o'qituvchilari uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvor bilan bog'liq ko'rsatkichlar ierarxik tizimining o'ziga xos imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Demak, D.Amirxanning «Stressli vaziyatlarni yenga olish strategiyalari» metodikasi modifikatsiya qilingan holda qo'llanilgan, natijalar yuqorida ta'kidlaganimizdek, maktab o'qituvchilarining stressli vaziyatlarni yenga olish strategiyalari yuzasidan juda muhim empirik ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini berdi. Bu ma'lumotlar maktab o'qituvchilarining stressli vaziyatlarda stressni yenga olish strategiyalari bilan bog'liq tasavvurlarini bilishi va shu tasavvurlar orqali adekvat psixologik usullarni belgilab olish imkonini beradi.

2-jadval.

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» hamda R.Lazarus va S.Folkmaning «Muammoli vaziyatlarda koping xulq-atvor mexanizmlari ko'rsatkichlarini tadqiq qilish» metodikasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik natijalari (n=170)

Omillar	Muammoni hal qilish	Ijtimoiy yordamni izlash	Muammodan qochish
Konfrontatsion koping	0,46*	0,23	0,17
Masofa saqlash	0,34*	0,20	0,17
O'z-o'zini nazorat qilish	0,48*	0,14	0,15
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni izlash	0,17	0,47*	0,18
Javobgarlikni qabul qilish	0,16	0,43*	0,18
O'zini chetga olish	0,14	0,20	0,47*
Muammoni hal qilishni rejalashtirish	0,44*	0,14	0,15
Ijobiy baholash	0,15	0,17	0,14

Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» hamda «Jamoaning o‘zini-o‘zi ijtimoiy-psixologik baholash» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar natijalariga ko‘ra, «muammoni hal qilish» omili «konfrontatsion koping» ($r=0,46$; $p\leq 0,05$), «masofa saqlash» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), «o‘z-o‘zini nazorat qilish» ($r=0,48$; $p\leq 0,05$) hamda «muammoni hal qilishni rejalashtirish» ($r=0,44$; $p\leq 0,05$) omillari bilan ijobiy bog‘lanishlar qayd etildi. «Ijtimoiy yordamni izlash» omili «ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) va «javobgarlikni qabul qilish» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «muammodan qochish» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) omili «o‘zini chetga olish» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) omili bilan teskari aloqadorlik kuzatildi.

Dissertatsion tadqiqotimizning «muammoni hal qilish» omili «konfrontatsion koping» ($r=0,46$; $p\leq 0,05$), «masofa saqlash» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), «o‘z-o‘zini nazorat qilish» ($r=0,48$; $p\leq 0,05$) hamda «muammoni hal qilishni rejalashtirish» ($r=0,44$; $p\leq 0,05$) omillari bilan korrelyatsion bog‘lanishlarni hosil qildi. Mazkur natijalar tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, «muammoni hal qilish» omili yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan maktab o‘qituvchilarida lokus nazorat, refleksiya, empatiya va boshqa xususiyatlar ijobiy darajada shakllanganligi, kasbiy faoliyatda turli xil muammoli vaziyatlarda, ichki nizolarda ko‘pincha o‘zidagi muammolarni ajratib olib, muammoli vaziyatlarni unutishga harakat qilish xususiyati yuqori ekanligi kuzatildi. Shuningdek, ularda o‘z hatt-harakatlari, his-tuyg‘ulari va ichki emotsional holatlarini nazorat qilish qobiliyatining shakllanganligi, faoliyatini ongli rejalashtirishni ma‘qul ko‘rishlari, doim rejalarga ehtiyoj sezishi, ishlari aniq, faoliyati samarali va barqaror bo‘lishi, mustaqil qaror qabul qilishi kabi xususiyatlarning yuqori darajada rivojlanganligi asoslandi. Ushbu xususiyatlar maktab o‘qituvchilarida kasbiy stressni barqarorlashtirishi, irodaviy sifatlarni yanada rivojlantirishi, qiyinchiliklarga nisbatan chidamlilikni shakllantirishi, matonatlik hamda jur‘atlilik omillarini oshishiga xizmat qiladi.

Metodikaning navbatdagi «ijtimoiy yordamni izlash» omili «ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) va «javobgarlikni qabul qilish» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) omillari bilan teskari aloqadorlikka ega bo‘ldi. Bu shundan dalolat beradiki, ijtimoiy yordam muhtoj bo‘lishi, ya‘ni, stressli holatlarda kasbiy faoliyatda biror muammoga duch kelganda boshqalarga tayanish darajasi yuqori darajada ekan. Maktab o‘qituvchilarida atrofdagi shaxslardan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishni kutishi ya‘ni, hamkasblari, oila a‘zolaridan nisbatan yuqori bo‘lishi, boshqalar tomonidan e‘tirof qilinishlarini istaydi. Shuningdek, muammo o‘zini kidek qabul qilishi, oldin sodir bo‘lgan muammolarni qayta takrorlamaslikka harakat qilishi, yuzaga kelgan muammolarda asosan o‘zini aybdor deb bilishi kabi holatlar kuzatildi.

«Muammodan qochish» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) omili «o‘zini chetga olish» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) omili bilan teskari korrelyatsion bog‘lanishlar aniqlandi. Ma‘lum bo‘lishicha, «muammodan qochish» omili yuqori darajasi bo‘lgan maktab o‘qituvchilarida o‘zini muammoli vaziyatlardan, ya‘ni mas‘uliyati yuqori bo‘lgan vazifalardan o‘zini chetga olishi kuzatildi. Chunki, ularda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklardan xavotirlanish, o‘z kasbiy faoliyatida qandaydir xato

qilishdan qo‘rqish, o‘ta ehtiyotkorlik bilan harakat qilishi namoyon bo‘ldi.

3-jadval.

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» hamda «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=170)

Omillar	Muammoni hal etish	Ijtimoiy yordamni izlash	Muammodan qochish
Raqobatlilik	0,44*	0,19	0,39*
Hamkorlik	0,15	0,49*	0,24
Murosallilik	0,18	0,43*	0,46*
Tortishuvdan qochish	0,14	0,13	0,12
Moslashuvchanlik	0,41*	0,17	0,16

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» hamda «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, «muammoni hal etish» omili - «raqobatlilik» ($r = -0,44$; $p \leq 0,05$) omili bilan salbiy, «moslashuvchanlik» ($r = 0,41$; $p \leq 0,05$) omili bilan esa ijobiy korrelyatsiyaga kirishdi. Maktab o‘qituvchilarining nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyasidan raqobatlilik usuli «muammoni hal qilish» omili bilan teskari bog‘lanishga ega ekanligi kuzatildi. Buning asosiy sababi raqobatga kirishishdan ko‘ra yuzaga kelgan muammoni hal etishni muhim deb bilishlari, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish uchun munosabatlarda raqobat usulidan qochish va ortiqcha bahslashmaslik, muammoni ratsional hal qilishga harakat qilashadi. Shuningdek, muammoni hal qilishda maktab o‘qituvchilarida shaxslararo munosabatlarga moslashish namoyon bo‘ldi. Mazkur holatlar nizoli vaziyatlarda raqobat, bahs-munozara usulini qo‘llamasdan turib, shunchaki vaziyatga moslashish, suhbatdoshining holatini baholashi, stressogen holatlarni keltiruvchi muammoni ratsional yo‘l bilan hal qilishga urinishlari bilan izohlandi.

Maktab o‘qituvchilarida «ijtimoiy yordamni izlash» omili esa «hamkorlik» ($r = 0,49$; $p \leq 0,05$) va «murosallilik» ($r = 0,43$; $p \leq 0,05$) omillari bilan ijobiy korrelyatsion bog‘lanishni hosil qildi. Ma’lum bo‘lishicha, «ijtimoiy yordamni izlash» omili yuqori natijani qayd etgan maktab o‘qituvchilarida shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda muammolarni mustaqil ravishda hal qilishdan ko‘ra, boshqalar bilan maslahat qilgan holda masalani hal qilishni ma’qul ko‘rishadi. Demak, maktab o‘qituvchilari nizoli vaziyatlarni hal qilishda ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishga ehtiyoj sezishadi, shuningdek, o‘z-o‘zidan o‘zaro

hamkorlik va kelishuvchanlik pozitsiyalarini tanlashlari ma'lum bo'ldi. Maktab o'qituvchilardagi «muammodan qochish» omili «raqobatlilik» ($r= 0,39$; $p\leq 0,05$) hamda «murosallilik» ($r=-0,29$; $p\leq 0,05$) bilan salbiy korrelyatsiyaga kirishdi. Ayrim maktab o'qituvchilari nizoli vaziyatda muammoni hal qilishdan ko'ra, muammodan qochishni yo'lini afzal ko'rishar ekan. Jumladan, ular nizolashdan uzoqroq yurish maqsadida, ijtimoiy statusini yanada mustahkamlashga e'tiborini qaratishi, ayrim oddiy masalalarni nazariga olmaslikka va muammoning pozitiv tomonlarini inobatga olishlari ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, muammoni hal qilishdan ko'ra, undan qochish motivi ustunlik qiladigan maktab o'qituvchilarida o'zaro kelishuvchanlik, ichki norozilik hissi va faol ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslik kabi holatlar aniqlandi. Demak, yuqoridagi tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, maktab o'qituvchilaridagi nizoli vaziyatlarni hal etish pozitsiyasi ularning koping strategiyasi bilan uzviy bog'liq hamda kasbiy stressni bartaraf etuvchi muhim omil ekanligi aniqlandi.

4-jadval.

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» hamda V.I.Morosanovanning «O'z xulq-atvorini tartibga solish uslubi» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=170)

Omillar	Muammoni hal etish	Ijtimoiy yordamni izlash	Muammodan qochish
Rejalashtirish	0,35*	0,12	-0,40*
Mustaqillik	0,12	0,05	-0,14
Moslashuvchanlik	0,08	0,33*	-0,03
Natijalarni baholash	0,37*	0,01	-0,34*

Izoh: * $p<0,05$; ** $p<0,01$

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» so'rovnomasi hamda V.I.Morosanovanning «O'z xulq-atvorini tartibga solish uslubi» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, «muammoni hal etish» «rejalashtirish» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) hamda «natijalarni baholash» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omillari bilan ijobiy, «ijtimoiy yordamni izlash» «moslashuvchanlik» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, «Muammodan qochish» «rejalashtirish» ($r=-0,40$; $p\leq 0,05$) va «natijalarni baholash» ($r=-0,34$; $p\leq 0,05$) omillari bilan salbiy korrelyatsiyaga kirishdi.

«Muammoni hal etish» bilan «rejalashtirish» omillari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ($r=0,35$) shuni ko'rsatadiki, stressli vaziyatlarda muammoni hal qilishga barcha imkoniyatlarini yo'naltirilgan bo'lsa, faoliyatini rejalashtirish jarayoniga jiddiy e'tiborini qaratadi. Bu esa xulq-atvorini tartibga keltirishi, jarayonni muvaffaqiyatli boshqarishi, yangi strategik loyihalarni ishlab chiqishga olib keladi. Ikkinchidan, «muammoni hal etish» omili va «natijalarni baholash» omili o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ($r=0,37$) shundan dalolat beradiki, muammolarni hal qilgan sayin, natijalarni baholash qobiliyati ham kuchayib


boraveradi. Bu pedagogik ish jarayonini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi, chunki, o'qituvchi har bir hatti-harakatining natijasini baholashi orqali keyingi yangi strategiyalarni ishlab chiqadi va muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi.

«Ijtimoiy yordamni izlash» omili «moslashuvchanlik» omili bilan ijobiy bog'lanishni qayd etdi ($r=0,33$; $p\leq 0,05$). Boshqacha qilib aytganda, stressli holatlarni boshdan kechirayotgan pedagog hamkasblaridan qo'llab-quvvatlashni kutishi va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday moslashuvchanlik stressli holatlarni yengishda va o'zini boshqarishda yordam beradi, ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash natijasida pedagog o'zini xavfsiz hamda ruhiy jihatdan barqaror his qiladi, bu esa unga turli vaziyatlarga moslashish imkonini beradi. «Muammodan qochish» omili «rejalashtirish» ($r=-0,40$; $p\leq 0,05$) va «natijalarni baholash» ($r=-0,34$; $p\leq 0,05$) omillari bilan salbiy korrelyatsiyaga kirishdi.

